



Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2018 yil yanvar- fevral holatiga

RAQAMLAR:

- Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **8,3 mingtaga o'sdi**
- Faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalarining ulushi **0,1 f.p. kamaydi**
- Tugatilgan korxonalariga nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar soni **3,9 mingtaga oshgan.**


2018 yilning yanvar-fevral oyida viloyatda 0,4 mingga yaqin korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 0,2 mingtaga ko'pdir.

Shuningdek faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,0 % ga oshgan hamda ularning soni 0,1 mingtani tashkil etganligini kuzatish mumkin.

Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 0,3 mingta (3,5 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 9,8 mingtani tashkil etgan.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy ulushi Navoiy shahrida (29,9 %), Karmana (17,4%), Qiziltepa (11,3 %) va Xatirchi (10,3 %) tumanlarida kuzatilmoqda.


Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), ming birlikda



**Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar
va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, 2018 yilning 1 mart holatiga)

| | Ro'yxatdan o'tgan | | Faoliyat ko'rsatayotgan | |
|------------------|-------------------|-------------------|-------------------------|-------------------|
| | ming birlik | jamiga nisbatan % | ming birlik | jamiga nisbatan % |
| Navoiy viloyati | 10,1 | 100,0 | 9,8 | 100,0 |
| Navoiy shahar | 3,1 | 30,5 | 2,9 | 29,9 |
| Zarafshon shahar | 0,6 | 5,9 | 0,6 | 6,0 |
| tumanlar: | | | | |
| Konimex | 0,3 | 2,9 | 0,3 | 2,9 |
| Qiziltepa | 1,1 | 11,3 | 1,1 | 11,3 |
| Navbahor | 0,9 | 8,5 | 0,8 | 8,6 |
| Karmana | 1,7 | 17,2 | 1,7 | 17,4 |
| Nurota | 0,8 | 8,2 | 0,8 | 8,3 |
| Tomdi | 0,2 | 1,8 | 0,2 | 1,8 |
| Uchquduq | 0,4 | 3,6 | 0,4 | 3,7 |
| Xatirchi | 1,0 | 10,1 | 1,0 | 10,3 |


Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlar va faoliyatsizlarning ulushi, % da




Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlarning ulushi 97,3 %ni, shu bilan birga jami korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulushi 2,7 % ni tashkil etganligini ko'rsatmoqda va bu ko'rsatkich esa yil boshiga nisbatan taqqoslanganda 0,1 f.p. kamaygan

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 19,8 % savdoda, 16,1 % sanoatda, 11,4 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 8,8 % qurilishda, 7,3 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 3,9 % tashish va saqlash, 2,1 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,1 % axborot va aloqa va 29,5 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) % da




Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), ming birlikda




2018 yil yanvar-fevral holatiga 449 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 58,1 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Navoiy shahrida (86 ta), Xatirchi (63 ta), Nurota (63 ta) va Karmana tumanlarida (56 ta) tashkil etilgan. Eng kam Uchquduq (21 ta), Konimex (10 ta) hamda Tomdi (8 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (84 ta), sanoatda (76 ta), savdoda (54 ta) va qurilishda (41 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (10 ta), tashish va saqlashda (10 ta) va sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (7 ta) tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining ulushi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (-1,5 f.p), savdoda (-0,5 f.p), axborot va aloqada (-0,2 f.p.dan), qurilishda (-0,1 f.p.dan) hamda boshqa faoliyat turlarida (-0,1 f.p dan) kamayganligi, buning natijasida sanoatda (+0,2 f.p.), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (+1,6 f.p.) va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (+0,5 f.p.dan) hamda tashish va saqlashda (+0,1 f.p.) ulushining o'sishiga olib keldi.


Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan ulushi, foiz punktda

| Iqtisodiy faoliyat turlari nomi | 01.03.2018 y. | 01.03.2017 y. | farqi (+-) |
|--|----------------------|----------------------|-------------------|
| Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 2,1 | 3,6 | -1,5 |
| Savdo | 19,8 | 20,3 | -0,5 |
| Axborot va aloqa | 1,1 | 1,3 | -0,2 |
| Sanoat | 16,1 | 15,9 | 0,2 |
| Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi | 11,4 | 9,8 | 1,6 |
| Qurilish | 8,8 | 8,9 | -0,1 |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 7,3 | 6,8 | 0,5 |
| Tashish va saqlash | 3,9 | 3,8 | 0,1 |
| Boshqa turlari | 29,5 | 29,6 | -0,1 |

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari).

2018 yil 1 mart holatiga 7,9 mingdan oshiq tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 3,3 mingta, oilaviy korxonalar – 0,5 mingta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 3,8 mingta, aksiyadorlik jamiyatlari – 0,02 mingtani va boshqalar 0,2 mingtani tashkil etadi.


Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar-xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning tashkiliy huquqiy shakllari bo'yicha taqsimlanishi, ming birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2018 yil 1 mart holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 64 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 3 taga yoki 4,9 % ga o'sgan. Shuningdek Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 47 tasi qo'shma korxonalar, 17 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi Navoiy shahar 21 ta (32,8 %i), Karmana tumanlari 23 ta (35,9 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Qiziltepa tumani 5 ta (7,8 %), Nurota tumani 5 ta (7,8 %), Navbahor tumani 3 ta (4,7 %) hissalariga tog'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining hududlar kesimidagi soni, birlikda



Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 mart holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 43 ta (67,2 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 7 ta (10,9 %), savdoda 4 ta (6,2%), boshqa turlarida esa 5 ta (7,8 %) tashkil qilgan, eng kamlari esa tashish va saqlashda 3 ta (4,7 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 1 ta (1,6 %) va qurilishda 1 ta (1,6 %) tashkil qilgan. Shundan ko'rinib turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi faoliyat turiga to'g'ri kelarkan. Shuningdek eng kam ulushi esa yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda hamda qurilish faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yilning yanvar-fevral oyida xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalarining soni 3 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3 taga ko'paygan.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoatda 2 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 1 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.


Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda



Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni


2018 yil 1 mart holatiga viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 7,8 mingtani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 mart holatiga qaraganda 11,6 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi ya'ni 2469 tasi (31,5 %) Navoiy shahriga, 1477 tasi (18,9 %) Karmana, 888 tasi (11,3 %) Qiziltepa hamda 697 tasi (8,9 foizi) Xatirchi tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni dinamikasi, ming birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 7,8 mingta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 1925 tasi (24,6 %) – savdoda, 1558 tasi (19,9 %) - sanoatda, 863 tasi (11,0 %) - qurilishda, 1084 tasi (13,9 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 715 tasi (9,1 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 369 tasi (4,7 %) - tashish va saqlashda, 99 tasi (1,3 %) - axborot va aloqa sohasida, 148 tasi (1,9 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, shuningdek 1067 tasi (13,6 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yil yanvar-fevral holatiga 0,4 mingga yaqin kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 27,8 foizga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Navoiy shahrida (75 ta), Nurota (63 ta), Karmana (40 ta) va Qiziltepa tumanlarida (40 ta) tashkil etilgan. Eng kam Uchquduq (16 ta), Konimex (9 ta) hamda Tomdi (8 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi sanoatda (76 ta), savdoda (54 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (84 ta) va qurilishda (41 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (10 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (7 ta) hamda tashish va saqlashda (10 ta) tashkil etilgan.


Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi ulushi, % da



Oilaviy korxonalar soni

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2018 yilning 1 mart holatiga 563 tani tashkil etib, ulardan 549 tasi yoki 97,5 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilninga shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 39,4 %ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarining 21,1 % yoki 116 tasi sanoat, 22,4 % yoki 123 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 16,9 % yoki 93 tasi savdo, 25,7 % yoki 141 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,6 % yoki 9 tasi qurilish, 0,6 % yoki 3 tasi axborot va aloqa, 1,3 % yoki 7 tasi tashish va saqlash, 1,6 % yoki 9 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 8,8 % yoki 48 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Viloyat statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni yuritish bo'limi
Nashr uchun mas'ul: **S.Doniyev**
(0371) 230-84-56

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat
registri (KTYDR) ma'lumotlari asosida
tayyorlangan